



365 KUN: YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT ODIMLARI

YANVAR

MUHIM VOQEALAR TAQVIMI

01.01. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigi yo'lladi.

14.01. 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni. Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigini yo'lladi.

DOLZARB MASALALAR MUHOKAMALARI

3.01. Banklar ishtirokida mahallalarda aholi bandligini ta'minlash va daromadini oshirish chora-tadbirlari bo'yicha, shuningdek, "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonun ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida axborot bilan tanishildi.

11.01. Elektrotexnika sohasidagi natijalar va kelgusidagi vazifalar hamda transport va logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari bo'yicha taqdimot bilan tanishildi.

16.01. Investitsiyalarni keng jalb etish va eksport hajmini oshirish borasidagi ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi asosiy vazifalar muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

17.01. Aholi bandligini ta'minlash va yangi yondashuvlar asosida kambag'allikni qisqartirishga oid chora-tadbirlar taqdimoti bilan tanishildi.

20.01. Hisob palatasi tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar va 2025-yilgi asosiy vazifalarga oid, shuningdek, tibbiyot muassasalarini jihozlash va xizmatlar sifatini oshirishga doir takliflar taqdimoti bilan tanishildi.

21.01. Parrandachilikni rivojlantirish va yaylovlardan samarali foydalanish chora-tadbirlari bo'yicha taqdimot bilan tanishildi.

22.01. Oliy ta'lim va ilm-fan sohasidagi ustuvor vazifalarga oid taqdimot bilan tanishildi.

23.01. Ipoteka dasturi doirasida 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar va 2025-yilgi rejalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

27.01. Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili davlat dasturi loyihasi yuzasidan yig'ilish o'tkazildi.

28.01. Ijtimoiy yordamlarning manzilligini oshirish, nogironligi bo'lganlarni parvarishlashning yangi tizimiga oid taqdimot bilan tanishildi. Shuningdek, elektr energetikasini 2025 – 2035-yillarda rivojlantirish chora-tadbirlari bo'yicha yig'ilish bo'lib o'tdi.

30.01. Tomorqada va ijaraga berilgan ekin yerlarida daromadli mahsulot yetishtirishning yangi tizimi bo'yicha yig'ilish o'tkazildi.

RASMIY TASHRIF

13 – 16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayonning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi. Tashrif davomida "Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi" sammitida ishtirok etdi va nutq so'zlad.

TASHQI SIYOSIY FAOLLIK

21.01. Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) prezidenti Akixiko Tanaka boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

22.01. O'zbekistonda tashrif bilan bo'lib turgan Rossiya Federatsiyasi mudofaa vaziri Andrey Belousovni qabul qildi.

25.01. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyatidagi "Amirsoy" kurort majmuasida Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov bilan norasmiy uchrashuv o'tkazdi.

27.01. O'zbekiston – Turkmaniston siyosiy maslahatlashuvlari doirasida mamlakatimizda bo'lib turgan Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi raisining o'rinbosari, tashqi ishlar vaziri Rashid Meredovni qabul qildi.

30.01. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev "Lukoyl" kompaniyasi asoschisi Vagit Alekperovni qabul qildi.

TELEFON MULOQOTLARI

23.01. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Yevropa Kengashi prezidenti Antoniu Koshta bilan telefon orqali muloqot qildi va ikki tomonlama hamda mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar ko'rib chiqildi.

27.01. Davlatimiz rahbari Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko bilan telefon orqali muloqot qilib, ko'p qirrali sheriklik munosabatlari yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi.

MAMLAKATIMIZ BO'YLAB

29.01. Prezidentimiz O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

30.01. Davlatimiz rahbari poytaxtimizdagi Islom Karimov haykali poyiga gulchambar qo'ydi.

IMZOLANGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR

- 6 ta Qonun;
- 16 ta Farmon;
- 34 ta qaror;
- 9 ta farmoyish.

BEQIYOS IMKONIYATLAR MAMLAKATI

Ahmad FARUQ, Pokiston Islom Respublikasining O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi.

O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan rivojlanish strategiyalari tufayli so'nggi yillarda ham ichki, ham tashqi siyosatda misli ko'rilmagan yutuqlarga erishdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning uzoqni ko'zlagan siyosati tufayli O'zbekiston imkoniyatlar mamlakatiga aylandi. Bu omil xorijiy sarmoyadorlarni hamda kompaniyalarni mamlakatimizga o'zaro manfaatli aloqalar ohanrabodek jalb qilyapti. Pokistonlik investorlar ham



O'zbekistonga katta qiziqish bildirib, mamlakat bozoriga kirib kelmoqda.

Mamlakatlarimiz yetakchilarining muntazam muloqotlari tufayli aloqalar strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Transport, qishloq

xo'jaligi, yengil sanoat, farmatsevtika va boshqa tarmoqlardagi hamkorlik jadal rivojlanib borayotir. O'zaro savdo hajmini yaqin istiqbolda 1 mlrd. dollarga yetkazish bo'yicha "Yo'l xaritasi" qabul qilingan.

Termiz – Mozori-Sharif – Kobul – Peshovar temir yo'li bizning umumiy kelajagimizdir. Bu yo'l bitsa, Pokistonni Markaziy Osiyo bilan bog'laydigan, O'zbekistonni Karachi, Gvadar va Qosim portlariga olib chiqadigan eng yaqin, arzon va xavfsiz yo'lak yaratiladi. Bu temir yo'l mintaqalarimiz qiyofasini butunlay o'zgartirib yuboradi.

VATANNI ULUG'LASH SAN'ATI



Ravshan ERMATOV, O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi birinchi vitse-prezidenti.

Keyingi yillarda Yangi O'zbekistonda sport siyosat darajasiga ko'tarildi. O'tgan yillarda Prezidentimizning sportga doir o'ndan ortiq Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 100 ga yaqin me'yoriy-huquqiy hujjatlari qabul qilindi. O'zbek futboliga har qachongidan e'tibor yuqori bo'ldi. Ayniqsa, bolalar futbolini ancha rivojlantirdi.

2024-yili ilk bora futbol bo'yicha olimpiya jamoabil Fransiyaning Parij shahrida bo'lib o'tgan XXXIII yozgi Olimpiadada Vatanimiz shah'ini munosib himoya qildi. 206 ta mamlakat ishtirok etgan Olimpiya o'yinlarida atletlarimiz 19 ta sport turi bo'yicha 90 nafar sportchi bilan qatnashdi. Musobaqani O'zbekiston sport delegatsiyasi 5 ta sport turidan 8 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza bilan umumjamoa hisobida 13-o'rinda yakunladi. Bitta Olimpiadada sakkitza oltin medalni qo'lga kiritgan yurtimiz sport jamoasi Osiyo qit'asida 4-o'rinni, turkiy va islom mamlakatlari hamda MDHga a'zo davlatlar o'rtasida 1-o'rinni egalladi.

Tarixga aylangan "Parij – 2024" Paralimpiya o'yinlarida 168 ta mamlakatdan 4,4 ming nafar parasportchi 22 ta para sport turida bahs olib bordi. Olimpiada o'yinlarida O'zbekistonimiz farzandlari 26 ta medal bilan 13-o'rinni egalladi.

MUQOBIIL ENERGIYA ULUSHI IKKI BARAVARGA KO'PAYDI

Sadritdin TUROBJONOV, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori, texnika fanlari doktori, akademik.



Prezidentimiz "yashil" iqtisodiyotga o'tish va uglerod neytralligiga erishish Yangi O'zbekistonning ustuvor strategik vazifasi ekanini bot-bot takrorlaydi. Bu maqsadlarga erishish atrof-muhit muhofazasi va iqtisodiyotni modernizatsiyalash ishiga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, so'nggi yillarda yurtimizda muqobil energiya ulushi ikki baravarga ko'paydi. "Yashil" vorodir ishlab chiqarish loyihasi bo'yicha ilk amaliy qadamlar tashlandi.

Savol tug'iladi: O'zbekistonda nima uchun "yashil" energetika rivojiga bu qadar katta rag'bat va e'tibor qaratilyapti? Chunki, eng avvalo, 2030-yilga borib sanoat hajmini ikki karra oshirish, metallurgiya, neft-kimyo va mashinasozlik kabi sohalarni sifat jihatdan mutlaqo yangi darajaga ko'tarish maqsad qilib qo'yilgan. Umumiy qiymati 150 mlrd. dollarlik 500 dan ziyod yirik sanoat va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish ko'zlangan. Bu maqsadga erishish uchun mamlakatimizga kafolatti va barqaror energiya resurslari suv bilan havodek zarur.

Hisob-kitoblarga ko'ra, kelgusi besh yilda mamlakatimizda elektr energiyasiga bo'lgan talab hozirgi 83 milliarddan 120 mlrd. kVt-soatga o'sishi kutilmoqda. Buni, birinchi galda, qayta tiklanadigan energiya hisobidan qoplash mumkin. Ikkinchidan, global muammoga aylangan iqlim o'zgarishining sabbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tinimsiz izlanilayotir.

KELAJAK SARI DADIL QADAM

Farhod TO'RAYEV, "O'zavtosanoat" AJ raisi o'rinbosari.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Xitoyning "BYD" kompaniyasi hamkorligida Jizzaxdagi yangi zavodda "Chazor" va "Song Plus Champion" modellari ishlab chiqarish boshlandi. Loyiha doirasida 60 mln. dollar miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyani o'zlashtirish, 1 200 ta ish o'rni hamda respublika bo'ylab 21 ta dilerlik va servis markazi yaratish ko'zda tutilgan. Zavodda avtomobil kuzovlarini payvandlash, bo'yash va yig'ish uchun yuqori texnologiyali uskunalar o'rnatildi va MDHda yagona bo'lgan laboratoriya ochildi. Ushbu korxonaning joriy quvvati 50 ming dona avtomobilni tashkil qilib, uning quvvatini uch bosqichda 500 ming dona avtomobilga yetkazish rejalashtirilgan. "BYD" avtomobillarining butlovchi qismlarini mahalliyashtirish orqali 2025-yilda elektromobillar xarajatlarini kamaytirish mumkin.

Bu choralar O'zbekistonni elektromobillar ishlab chiqarishda mintaqaviy yetakchiga aylantiradi. Bu, o'z navbatida, mahalliyashtirish darajasini qo'shimcha 10 foizga oshirish imkonini yaratadi. Yurtimizda ishlab chiqarilgan "BYD" avtomobillarini qo'shni davlatlarga, jumladan, Qozog'istonga eksport qilish ham juda muhim.

SUDLAR – ADOLATNI RO'YOBGA CHIQUARUVCHI KUCH

Ubaydulla MINGBOYEV, O'zbekiston Sudyalari assotsiatsiyasi raisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist.

Davlatimiz rahbari 2020-yil 30-iyunda bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida "Sud binosiga kelgan har bir inson O'zbekistonda adolat borligiga ishonib chiqib ketishi kerak. Bu – Prezident talabi!" degan edi.

O'tgan davrda bu talab asosida sud tizimida katta o'zgarishlar bo'ldi. Odamlarning sudlar adolatini ro'yobga chiqaruvchi kuch ekaniga ishonchi ortib bormoqda. Uzoq yillar mazkur sohada ishlagan, uning pastu balandini ko'rgan inson sifatida ta'kidlashni istar edimki,

bugungidek zamonlarning qalqimimiz uchun asrlar davomida orzu bo'lib kelgan.

Men faoliyatim davomida anglagan haqiqatlardan biri shuki, adolatsizlikning katta-kichigi bo'lmaydi. Zig'irdek adolatsizlik ham kishi ko'nglini og'ritib, nafrat urug'larini ekadi. Bu esa bora-bora butun jamiyatda o'z aksini ko'rsatadi.



Nafrat va g'azabga to'lgan ko'ngilda esa barcha ishlar adolatsizdek tuyuladi. Shu bois sudyalari adolat tarozisining posangisiga nihoyatda e'tiborli bo'lishi lozim. Xalq ular timsolida jamiyatdagi adolat qiyofasini ko'radi.

Yaqinda sudlar statistikasini, jumladan, sud zalidan ozod etish bilan bog'liq dinamika tahlil qilib ko'rdim. Keyingi yillarda dinamika keskin o'sgan – minglab insonlar sud zalidan ozod etilgan, minglab insonlar oqlangan. Bu nimadan dalolat? Bu sudlarning mustaqilligi ta'minlanganidan darak. Bu adolat g'olib bo'layotganidan nishona. Bu davlatimiz rahbari qo'yan talab – inson qadrlarini yuksaltirishga belgisi.

QORAQALPOG'ISTONDA YANGILANISH NAFASI

Ahmed REYMOV, Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston davlat universiteti rektori, akademik.



Bugungi kunda yangi Qoraqalpog'istonni bunyod etish yo'lida yuksak maqsad va vazifalar belgilab olingan, g'oyat ulkan rejalari tuzilgan. Bu

vazifalar Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hududiy dasturlarida yanada aniqlashtirilgan.

Davlatimiz rahbari Orol fojiasini bartaraf etish uchun muammoning faqat oqibati, ya'ni ta'siriga yechim topmay, uning sababi bilan kurashish yo'lini ko'rsatdi.

Orolning qurib qolgan maydonini o'simliklar bilan qoplab, tuzli, zaharli to'zonni to'xtatib, uning o'rni yashil qoplamalarni yaratish zarurligini ilmiy asoslab berdi. Bu tashabbus dunyo hamjamiyati tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi.

2024-yil Qoraqalpog'iston uchun barakali keldi. Yangi sanoat korxonalari, turizm maskanlari, energetika quv-

vatlari, IT-park ishga tushirildi. Qoraqalpog'istonni Xorazm bilan bog'laydigan 423 metrlik yangi avtomobil va temir yo'l ko'prigi ochildi. Bu orqali yuk va yo'lovchi tashish masofasi 180 kilometrqa qisqardi. 323 mln. dollar hisobiga yangitdan qurilgan Qo'ng'iro't – Beynov avtomobil yo'lining 240 kilometrlik qismi foydalanishga topshirildi. Shuning o'zi tranzit va boshqa xizmatlar hajmi yiliga 200 mln. dollarga oshishiga zamin yaratadi.

